

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA**SAN'ATIMIZNING O'RNI**

Sabirov Zabixillo Raxmatillayevich

Shayxontohur tumani Madaniyat markazi qoshidagi

Shodlik doirachilar guruhi Badiiy rahbar

Annotatsiya

M'alumki mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviy-ma'rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida, bir so'z bilan aytganda ma'naviy-ma'furaviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib, insonlarni ezgulik sari boshladi.

Kalit so'zlar: Vatan, rivojlantirish, qadriyatlar, yoshlar, san'at, mustaqillik, tarbiya, vatanparvarlik;

“Vatan” - arabcha so'zdan olingan bo'lib, - «Ona yurt» degan ma'noni anglatadi. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan, avlod va ajdodlari tug'ilgan joyi, ijtimoiy muhiti va inson, uning hayoti va ma'naviy tushunchalarni anglatadi. -Vatanparvarlik -deganda Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ma'naviy - axloqiy fazilatlar tushuniladi. Vatanparvarlik - ota-bobolarimizdan meros qolgan zaminni sevish, yurtning o'tmishi va kelajagi, xalq urf-odatlarini, kuy-qo'shiqlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish demakdir».

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo'lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo'l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Vatan tushunchasini har kim har xil ma'noda, o'zining tushunish darajasida talqin qiladi. Bu - insonning tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o'tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo'msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo'lida xizmat qilish, uni yomon ko'zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha'nini himoya qilish - bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas'uliyatli vazifalardandir. Vatan tushunchasini, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish tuyg'usi nafaqat insonda, balki hayvonot olamida ham kuzatish mumkin. Baliq suvga, hayvon o'zining iniga, hasharot uyasiga intiladi.

Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir. Yoshlar tarbiyasini tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta'lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Vatan taraqqiyotida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash harbiy hizmatga nisbatan aytiladi shu jihatdan

san'atimizning o'rni bor desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday olib qaraganda asosan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari doim harbiy hizmatga tegishli bo'lib kelgan. Ammo biz yoshlarni bu orqali chegaralab qo'ymasdan, ularning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda san'atimizning o'rni ham beqiyos deb hisoblaymiz. Bugungi kunda yoshlarning ma'anaviyatini oz bo'lsada san'atga bag'ishlab tarbiyalasak, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Shuningdek san'at, o'quvchilarda barcha qobiliyatni o'sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ilg'or g'oyalarni davrimizda roy berayotgan o'zgarishlarni, shuningdek, san'at mavzulariga oid zamonaviy ruhda tushuntirish o'g'il va qizlarda g'oyaviy e'tiqodni ma'naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi. Vatanparvarlik tushunchasi ko'pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatiladi. Bir jihatdan olib qaralganda, bu to'g'ri.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Rayhon Beruniy Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. Toshkent fan 1968 y.
2. Abu Rayhan Beruni Monuments of ancient peoples. Selected works. Toshkent fan 1968 y.
3. Avloniy Abdulla Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi 1992. -160
4. Do'stmuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.K., Alimbayeva Sh.T. "Yosh davrlar va pedagogik psixologiya" - Toshkent: TDPU, 2013.
5. Inoyatov I.Y., Abilov M.X. «Vatan himoyasi muqaddas burch» Toshkent. "O'zbekiston". 2001y.